

YAKKA XONANDALIK ISTIQBOLLARI

Boriyeva Komilaxon Rasulovna

*O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, Yunus
Rajabiy nomidagi Ozbek Milliy sanati instituti
Maqom xonandaligi kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya: Ushbu maqola orqali o'zbek san'atining eng ko'zga ko'rinarli qismi yakkaxon xonandalikning tarixi, turlari va natijalari bilan tanishib chiqishingiz mumkin. An'anaviy xonandalikning turlarining o'ziga xos noyob jihatlari bilan tanishamiz. San'atning inson ma'naviyatiga ta'sirini va uning inson ruhiyatidagi o'rnini ko'rib chiqamiz.

Kirish so'zlar: An'anaviy musiqa, yakkaxon xonandalik, professional, musiqa ta'limi, milliy musiqa, musiqiy kuylash, malaka

Аннотация: Благодаря этой статье вы сможете ознакомиться с историей, видами и результатами сольного пения, самой заметной части узбекского искусства. Познакомимся с уникальными аспектами видов традиционного пения. Мы рассмотрим влияние искусства на духовность человека и его место в психике человека.

Ключевые слова: традиционная музыка, сольное пение, профессионал, музыкальное образование, национальная музыка, музыкальное пение, квалификация.

Abstract: Through this article, you can familiarize yourself with the history, types and results of solo singing, the most prominent part of Uzbek art. Let's get acquainted with the unique aspects of the types of traditional singing. We will consider the influence of art on human spirituality and its place in the human psyche.

Keywords: traditional music, solo singing, professional, music education, national music, musical singing, qualification

O'zbek musiqa san'atida an'anaviy yakka xonandalik san'ati qadimdan rivojlanib kelmoqda. Professional musiqa nazariyamiz asoschisi Abu Nasr Forobiy (X asr) "Katta musiqa kitobi" asarida saboq berganidek, musiqa san'ati ijrochiligining ikki turi mavjud:

- 1) ohanglarni kuylash vositasida ijro etish;
- 2) ohanglarni cholg'ular vositasida ijro qilish.

Ana shu birinchi tur an'anaviy yakka xonandalik ijro san'atining negizi hisoblanadi, shu sababli u qadimiy va zamonaviy san'at bo'lib kelmoqda. Buning uchta sababi bor:

- 1) an'anaviy yakka xonandalik san'atida inson ovoqidagi tabiiy ohanglar ro'yobga chiqadi;
- 2) bunda kuylash jarayoni vaqt omilida kechadi;
- 3) kuylovchi harakatlar tizimidan foydalanadi: Aynan inson ovoqidagi tabiiy ohang, vaqt va harakat uyg'unligi an'anaviy yakka xonandalik san'atining nazariy tayanchlari sifatida qabul qilinadi. Musiqa san'atimizda an'anaviy yakka xonandalik ikki shaklda rivojlanib kelmoqda:
 - 1) professional xalq og'zaki shaklida;
 - 2) an'anaviy professional musiqa shaklida.

Professional xalq og'zaki shaklidagi an'anaviy yakka xonandalik san'atida qo'shiq kuylash ustozdan shogirdga uzatib kelinmoqda, bunda qo'shiq va kuyning muallifi ko'p hollarda xalq hisoblanadi. Bu juda qadimgi davrlardan hozirgi kungacha davom etib kelmoqda.¹

An'anaviy yakka xonandalikning san'atligi shundaki, unda muayyan she'riy matn ashula (qo'shiq) shaklida musiqa vositasida tinglovchiga yetkaziladi.

Tinglovchi xonandaning kuylashidan ruhiy-ma'naviy zavq oladi, muayyan fikr yoki g'oyani uqadi hamda kuylovchiga munosabat bildiradi. Aynan mana shu nuqtada an'anaviy yakka xonandalikning o'ziga xos san'at ekanligi namoyon bo'ladi. An'anaviy yakka xonandalikning ikki turi mavjud:

- 1) havaskor yakka xonandalik;
- 2) professional yakka xonandalik

Havaskor yakka xonanda kuylashning dastlabki asoslarini o'zlashtirib, an'anaviy ashulalami (qo'shiqlarni) ijro etish bilan cheklanadi. Professional yakka xonanda esa musiqa ta'limini olgan, yakkaxon yoki ansambl tarkibida an'anaviy ashulalami (qo'shiqlarni) talab darajasida ijro etuvchi hamda ijod bilan shug'ullanuvchi san'atkordir. Bugungi kunda mamlakatimizda havaskor va professional yakka xonandalik uzviy rivojlanib bormoqda. Ayni paytda, professional yakka xonandalikni rivojlantirib borish taqozo etiladi. Chunki jahon xalqlarining hozirgi rivojlanib borish jarayoni har bir soha qatorida musiqa san'ati yo'nalishlarini taraqqiy ettirishda professionalizm omiliga asosiy e'tiborni qaratmoqda.² "An'anaviy yakka xonandalik san'ati" tushunchasining an'anaviy iborasi "bir tomondan meros qoldirish va ijtimoiy vorislikni, ikkinchi tomondan esa yangilanish va navqironlikni" anglatadi. Buning ma'nosi shuki, yakka xonandalik san'atida tajribali san'atkor (kuylovchi) o'zining ijro mahorati sirlarini yosh iste'dodli shaxsga uzatadi, bu yosh iste'dod yakka xonandalik asoslariga vorislikni qabul qiladi va ayni paytda, har bir yakka xonanda bu san'atning zamon va makon talablariga mos ravishda rivojlanib borishini ta'minlaydi, bu an'anaviylikning navqironligidir (hamisha amalda bo'lishidir). Shu tariqa yakka xonandalik san'atida davomiylik ta'minlanadi. Demak, yakka xonandalik san'atida an'anaviylik bu:

- yakka ovozda kuylash asoslarini ajdodlardan avlodlarga uzatib borish;
- sohada vorislikni ta'minlash;
- bu san'at turini zamon talablariga mos ravishda rivojlantirib borishdir.

Yakka xonandalik - kuylash san'atining negizi bo'lib, unda muayyan ashula (qo'shiq) bir shaxs tomonidan yakka ovozda ijro etiladi. Musiqa san'atiga oid adabiyotlarda yakka xonandalikning bir necha xususiyatari tahlil qilib o'tilgan. Ular tahlil qilinganida asosiy xususiyatlar ko'zga tashlanadi. Unga ko'ra, yakka xonanda bo'lish uchun:

- talab darajasida ovoz diapazoniga ega bo'lishi;
- musiqiy eshituv va kuylash layoqatining mavjud bo'lishi;
- muayyan ko'nikma va malakani egallashi kerak.³

An'anaviy xonandalikning maqsadlaridan yana biri Respublikamiz badiiy jamoalariga mutaxassis kadrlar tayyorlab berishdan iboratdir. Talabalarga o'zbek xalq qo'shiqlari hamda "Shashamaqom" haqida ma'lumotlar berish bilan birga, yaratilish tarixi, ijro diapazoni, ovozni ishlatish, dinamik belgilar, xonandaning ijro holati, asarlardagi o'lchovlar, usullar, kuylarning shaklan tuzilishi, ijro texnikasi, o'rganilayotgan asarlarning mualliflari haqida ma'lumotlar va

zarur ko'rsatmalar beriladi. O'zbek milliy musiqa merosi o'zbek yoshlari ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, endilikda yoshlar tarbiyasida milliy musiqa ilmini chuqur egallashlari, ijodiy yangiliklarini kengaytirishlari maqsadga muvofiqdir. 4

O'zbekistonda har bir sohada bo'lgani kabi san'atga berilayotgan e'tibor va shuning natijasida bu san'atning rivojlanib, takomillashib borayotgani soha vakillarini quvontirmoqda. Jahon andozalariga mos tushadigan yangi yo'nalishdagi musiqa san'ati sezilarli darajada yuksaldi, ulg'aydi va rivojtopdi. Ayni paytda, ustozlarning yangi yosh avlodi shakllanib borayotganligini nazarda tutsak,

O'zbekistonda musiqa san'ati yangi sifat pog'onasiga ko'tarilayotganligini ta'kidlashimiz mumkin. O'zbekistonda ta'lim dasturlarini amalga oshirish ma'lum bir kontseptsiyaga tayangan holda, ishlab chiqib tasdiqlangan – Davlat ta'lim standartlari, o'quv reja vadasturlar asosida amalga oshirilayotganligi barcha sohalar kabi musiqiy ta'limda ham tizimga solinib, yanada takomillashtirilmoqda. Musiqa sadolari olamida inson ovozigacha juda katta o'rin berilgan. Insoniyat ma'naviyati ravnaqi misolida olloh nazar solgan O'zbekiston madaniyatining serqirraligi va betakror san'ati, maqom va makonlari; bunday mo'jiza o'lkaning har tomonlama chuqur tarixi hamda bugungi kundagi o'rni va ahamiyati, azaldan hozirgacha moziydan sado kabi jahonni hayratga solib bormoqda!.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan keyingi o'tgan davrda mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotining barcha sohalar qatori xalq ta'limi tizimini isloh etish bo'yicha ham ulkan ishlar amalga oshirildi va oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ko'rsatilganidek, uzluksiz ta'lim tizimida kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash oliy ta'limdan so'ng eng asosiy bo'g'in hisoblanadi. Maktablarimizda musiqa madaniyatining o'qitilishiga katta e'tibor berilmoqda.⁵

Yakka xonanda (ashula ijrochisi) uch mutaxassis bilan o'zaro aloqada ijro mahoratini hosil qiladi: 1) ta'lim jarayonida ustoz bilan; 2) ashula matni muallifi bilan; 3) bastakor (kompozitor) bilan. Bu ijodkor yakkaxon ashula ijrochilariga xos xususiyatdir va ayni paytda, ko'pchilik yakka xonandalar an'anaviy ashulalami ijro qilish bilan cheklanishini ta'kidlash joiz. Lekin biz shaxsiy tajribamizdan kelib chiqib ijodkor yakkaxon ashula ijrochilarni yakka xonandalik san'atini rivojlantiruvchi muhim tayanch deb hisoblaymiz. Negaki, bunday toifa ijro etgan yangi va original ashulalar yillar sinovidan o'tib an'anaviy ashulalarga aylanib boradi. Shu ma'noda biz tomonimizdan Xusrav Dehlaviy (XIV asr) so'zi va Shavkat Mirzayev musiqasi bilan ijro etilgan quyidagi «Kerak yo'qdur» ashulasi bugungi kunda an'anaviy ashulaga aylanganini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin.⁶

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.«Musiqa» nashriyoti Toshkent 2018, An'anaviy yakka xonandalik, Munojatxon Yo'lchiyeva

2."Oriental Art and culture" Scientific-methodical Journal/ISSN 2181-063x, AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAXASSISLARIGA BILIM BERISHDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYALAR, Moxigul Gulomovna Akbarova, Bakhodir Xudoykulovich Xodjakulov

3.«Musiq» nashriyoti Toshkent 2018, An'anaviy yakka xonandalik, Munojatxon Yo'lchiyeva

4."Oriental Art and culture" Scientific-methodical Journal/ISSN 2181-063x,
**AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAXASSISLARIGA BILIM
BERISHDA PEDAGOGIK**

KOMPETENSIYALAR, Moxigul Gulomovna Akbarova, Bakhodir Xudoykulovich Xodjakulov

5.<https://universalpublishings.com/index.php/tsru/article/download/2542/4843/2469>

6.«Musiq» nashriyoti Toshkent 2018, An'anaviy yakka xonandalik, Munojatxon Yo'lchiyeva